

# **Biznes marafon | Taniqli tadbirdorlar va motivatorlar Surxondaryoda**



Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan bugun vohalik 400 nafarga yaqin yosh tadbirdorlarning bilim va ko'rikmalarini oshirish, biznes sohasida ulkan yutuqlarga erishgan tadbirdorlarning tajribalari bilan tanishtirish maqsadida Termiz shahrida biznes marafon o'tkaziladi.

Biznes marafon Surxondaryo viloyati hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar-kelajagimiz” jamg'armasi hamda “M-Faktor” loyihasi hamkorligida tashkil etilayotgan bo'lib, unda Respublikamizda taniqli tadbirdorlardan Jahongir Ortiqxo'jayev, Husan Mamasaidov, Zafar Hoshimov, Laziz Adhamov, Umidjon Ishmuhamedov va bir qator taniqli motivatorlar ishtiroy etishadi.

Biznes marafon tadbirlari Surxondaryo viloyati hokimligi Axborot xizmatining [You tube](#) dagi [rasmiy sahifasi](#) hamda “Surxondaryo” telekanali orqali to'g'ridan-to'g'ri efirga berib boriladi.